



KORRUPSIYA VA KORRUPSIYAVIY OMILLAR HAMDA ULARNING BOG'LIQLIGI

Jumanov Jamshidbek

Toshkent davlat yuridik universiteti Magistratura va sirtqi ta'lim
fakulteti Davlat boshqaruvi huquqi yo'nalishi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671568>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-June 2025 yil
Ma'qullandi: 10-June 2025 yil
Nashr qilindi: 16-June 2025 yil

KEY WORDS

korruptsiya, korruptsiyaviy omillar, davlat boshqaruvi, ijtimoiy-huquqiy hodisa, siyosiy muhit, iqtisodiy omillar, huquqiy mexanizmlar, korruptsiyaga qarshi kurash, tahlil, omillar bog'liqligi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada korruptsiya tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari va korruptsiyaviy omillar tahlil qilinadi. Korruptsiya – davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, korruptsiyaviy omillar — siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy muhitda shakllanuvchi sabablar va shart-sharoitlar sifatida tavsiflanadi. Maqolada bu omillarning o'zaro bog'liqligi, ularning korruptsiya holatlarini yuzaga keltirishdagi roli, statistik ma'lumotlar va ilmiy nazariyalar asosida tahlil qilinadi.

Korruptsiya bugungi global muammolardan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotiga, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchiga va huquq ustuvorligiga jiddiy zarar yetkazadi. Har bir jamiyatda korruptsiya o'ziga xos shaklda namoyon bo'lsa-da, uni yuzaga keltiruvchi umumiy omillar mavjud. Ushbu bo'limda korruptsiya tushunchasi, uni yuzaga keltiradigan omillar va ular orasidagi o'zaro bog'liqlik olimlar fikriga tayanib, sodda tilda tahlil qilinadi.

Korruptsiya — mansab yoki lavozim vakolatlaridan shaxsiy manfaat uchun foydalanishdir. Eng ko'p uchraydigan shakllari: pora olish, xizmat evaziga noqonuniy imtiyoz berish, nepotizm (qarindoshlarni ishga olish) va davlat resurslaridan shaxsiy maqsadda foydalanish. Bunday harakatlar nafaqat qonunbuzarlik, balki jamiyat axloqiy me'yorlarini buzuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Korruptsiya har qanday davlat va jamiyat uchun xavfli ijtimoiy illatdir. Uning asosiy sabablari turlicha bo'lsa-da, ularni korruptsiyaviy omillar deb ataluvchi umumiy guruhlar orqali tahlil qilish mumkin.

Asosiy qism. Korruptsiya keltirib chiqaruvchi eng muhim omillardan biri — huquqiy muhitdagi noaniqlik va sustlikdir. Agar qonunlar chalkash, ziddiyatli yoki turlicha talqin qilinadigan bo'lsa, bu ulardan suiiste'mol qilishga zamin yaratadi. Ayniqsa, sud tizimi mustaqil bo'lmasa yoki jazoga murosasizlik mavjud bo'lsa, bu amaldorlarni jazodan qo'rqmasdan korruption harakatlarga borishga undaydi.

Masalan, Rossiyalik huquqshunos Y.A. Tihomirov bu holatni "davlat boshqaruvi tizimida huquqning zaif ishlashi" bilan izohlaydi. Uning fikricha, qonunchilikdagi noaniqliklar, tartibga

solinmagan amaliyot va jazo muqarrarligining yo'qligi korrupsiyani rivojlantiradi¹. Darhaqiqat, davlat boshqaruvida qonun ustuvorligi tamoyilining etarlicha qaror topmaganligi korrupsiyaning chuqurlashuviga imkon yaratadi. Ayniqsa, normativ-huquqiy hujjatlar orasidagi ziddiyatlar, ularning turlicha talqin qilinishi, amaliyotda tartibga solinmagan holatlarning mavjudligi va eng muhimi, jazo muqarrarligining zaifligi — bularning barchasi korrupsiyaning ommalashishiga qulay sharoit yaratadi.

Tihomirov ta'kidlaganidek, qonunlar hayotga tatbiq etilayotganda ular aniq, tushunarli va amalga oshirishga yaroqli bo'lishi lozim. Aks holda, davlat xizmatchilarining harakati subyektiv qarorlar asosida belgilanadi, bu esa pora olish, xizmat vakolatini suiiste'mol qilish kabi jinoyatlarning rivojlanishiga olib keladi. Ya'ni, davlat boshqaruvida "huquqiy noaniqlik" muhitining mavjudligi korrupsiyaviy xavflarni kuchaytiradi.

Shuningdek, qonunbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan chora ko'rmaslik yoki jazolashda uzilishlar bo'lishi ham korrupsiya ildiz otishining asosiy sabablaridandir. Chunki jazo muqarrarligi prinsipining amal qilmasligi – huquqbuzar shaxslarda jazodan qutulib qolish mumkin degan noto'g'ri ishonchni shakllantiradi. Bu esa korrupsion xatti-harakatlarni davom ettirishga zamin yaratadi.

Misol uchun, davlat boshqaruvi tizimida amaldorlar tomonidan xizmat vakolatining belgilangan tartibda amalga oshirilmassligi, qarorlar qabul qilishda manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi, tender va davlat xaridlari jarayonida oshkoralikning etishmasligi kabi holatlar — huquqning zaif ishlashidan dalolat beradi.

Natijada, bunday vaziyatda fuqarolarning davlat boshqaruvi institutlariga bo'lgan ishonchi susayadi, qonunga bo'lgan hurmat pasayadi va jamiyatda befarqlik muhitining kuchayishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, huquqning kuchli ishlamasligi nafaqat korrupsiyani kuchaytiradi, balki umuman davlat boshqaruvining samarasini pasaytiradi, institutsional zaifliklarni kuchaytiradi.

Demak, korrupsiyaga qarshi kurashda muhim strategik yo'nalishlardan biri bu — huquqiy tizimni mustahkamlash, qonun hujjatlarini takomillashtirish va ularning amalda to'liq va izchil ijro etilishini ta'minlashdir. Zero, huquq faqat gog'ozda emas, balki real amaliyotda ishlasa, korrupsiyaga qarshi haqiqiy to'siq bo'la oladi.

Korrupsiyaning boshqa bir omillardan biri **iqtisodiy omillar** hisoblanib — korrupsiyaning eng ko'p uchraydigan ildizlaridan biri. Agar davlat xizmatchilari past maosh olsa, ishsizlik yuqori bo'lsa, jamiyatda moliyaviy tengsizlik bo'lsa, ular o'z ehtiyojlarini noqonuniy yo'l bilan qondirishga urinadi.

Amerikalik huquqshunos tadqiqotchi Robert Klitgord bu borada quyidagi formulani ilgari surgan: $K = M + D - A$, ya'ni Korrupsiya = Monopoliya + Diskresiya – Hisobdorlik. Ushbu formula shuni anglatadiki, iqtisodiy tengsizlik, davlat mablag'lari ustidan yakkahokimlik va nazoratning sustligi korrupsiya uchun imkon yaratadi² - deya fikr bildirgan.

O'zbekiston iqtisodiyotini taraqqiy toptirish, mamlakatga yirik miqdordagi chet el sarmoyalarini jalb qilish va ularni harakatga solish yo'lidagi eng asosiy to'siqlardan biri sifatida ko'riladi. U tufayli chorak asrdan ortiq vaqt davomida yurtimizdagi biznes yuritish muhiti izdan chiqib ketgandi³. Shu sababli, so'nggi yillarda mavjud muammoli holatni

o'zgartirish borasidagi sa'y-harakatlar sezilarli darajada kuchaytirildi. Barchaga ayonki, korrupsiya kabi salbiy holatlarga qarshi samarali kurash olib borishda raqamlashtirish jarayoni muhim o'rin tutadi. Ushbu yo'nalish esa katta hajmdagi resurslarni talab qiladi. Shu bois, bugungi kunda raqamli iqtisodiyotga o'tish dolzarb va ustuvor vazifalardan biriga aylangan.

Boshqa omillardan yana biri **madaniy-axloqiy omillar** hisoblanadi. Jamiyatda korrupsiya "odatiy hol" sifatida qabul qilinsa, bu axloqiy qadriyatlarning zaifligidan darak beradi. Aholi orasida halollik va adolat me'yorlari qadrsizlansa, korrupsiya avloddan avlodga o'tadigan "urfdan" iborat bo'lib qoladi.

Zamonaviy korrupsiyaga qarshi tadqiqotlar faqat huquqiy yoki iqtisodiy choralar bilangina cheklanib qolmay, balki uni chuqurroq – ijtimoiy, madaniy va institutsional jihatdan ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatmoqda.

Amerikalik boshqa bir tadqiqotchi ayol Susan Rose-Ackerman bu holatni "institutsional bo'shliq" deb ataydi va korrupsiyani jamiyatdagi ishonchsizlik muhitining mahsuli deb ko'rsatadi⁴. Unga ko'ra, aholining davlatga bo'lgan ishonchi pasaysa, ular porani muqobil vosita deb qabul qilishadi. Davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonch zaiflashganda, odamlarda rasmiy tartib va qonunlarga emas, balki norasmiy mexanizmlarga – ya'ni poraga tayanish tendensiyasi kuchayadi. Natijada, pora berish va olish jamiyatda "muqobil vosita" sifatida qabul qilinadi, bu esa korrupsiyani odatiy amaliyot darajasiga olib chiqadi.

Rus olimasi Yelena Buzun esa jamiyatdagi huquqiy madaniyat pastligi korrupsiyaning asosiy madaniy omili ekanini ta'kidlaydi⁵. Haqiqatdan ham agar aholining ko'pchiligida qonunlarni tushunish, ularga hurmat bilan yondashish va huquqiy ong shakllanmagan bo'lsa, korrupsiyaga qarshi kurashish faqat ma'muriy choralar bilan muvaffaqiyatli bo'la olmaydi. Huquqiy madaniyatning pastligi natijasida fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini anglamaydilar, davlat tizimidagi ochiq-oshkora bo'lmagan munosabatlarni oddiy va "hal qiluvchi" vosita sifatida qabul qilishadi.

Zamonaviy korrupsiyaga qarshi tadqiqotlar faqat huquqiy yoki iqtisodiy choralar bilangina cheklanib qolmay, balki uni chuqurroq – ijtimoiy, madaniy va institutsional jihatdan ham tahlil qilish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, amerikalik taniqli olima Susan Rose-Ackerman korrupsiyani jamiyatdagi umumiy ishonchsizlik muhitining bevosita mahsuli sifatida izohlaydi. U bu holatni **"institutsional bo'shliq"** atamasi bilan ifodalaydi. Uning fikricha, davlat va fuqarolar o'rtasidagi ishonch zaiflashganda, odamlarda rasmiy tartib va qonunlarga emas, balki norasmiy mexanizmlarga – ya'ni poraga tayanish tendensiyasi kuchayadi. Natijada, pora berish va olish jamiyatda "muqobil vosita" sifatida qabul qilinadi, bu esa korrupsiyani odatiy amaliyot darajasiga olib chiqadi.

Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib aytish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat qonunlar va institutlar, balki ijtimoiy ong, axloqiy qadriyatlar, huquqiy madaniyat va ishonch muhitini shakllantirish orqali amalga oshirilishi kerak. Chunki korrupsiya bu nafaqat jinoyat, balki u chuqur ildiz otgan ijtimoiy-madaniy muammo hamdir. Davlat organlari faoliyati ochiq, hisobdor bo'lmasa, odamlar qonunlardan emas, norasmiy vositalardan yordam kutadi. Shuning uchun korrupsiyaga qarshi strategiyalar doirasida fuqarolik jamiyatining

ishtirokini kengaytirish, huquqiy targ'ibotni kuchaytirish va davlatga nisbatan ishonchni mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Davlat xizmatchilarida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Chunki davlat xizmatchilarida ushbu madaniyatni shakllantirmasdan samarali natijaga erishish imkonsiz⁶.

Shu sababli, O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunining 3-bobi (Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish) korrupsiyaga qarshi huquqiy madaniyatni yuksaltirishga bag'ishlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yildagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak", deb ta'kidlaydi⁷. Darhaqiqat, jonajon O'zbekistonimizda hozirgi paytda olib borilayotgan keng ko'lamdagi islohotlarning harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan halollik, rostlik, to'g'rilik bilan yondashish orqali yuzaga kelayotganligini barchamiz teran anglamog'imiz lozim.

Boshqa omillardan yana biri bu — **tashkiliy-siyosiy omil deyishimiz mumkin.**

Korrupsiya davlat boshqaruvidagi yopiq tizim va fuqarolik jamiyati zaif bo'lgan sharoitda ayniqsa tez rivojlanadi. Siyosiy raqobat yo'qligi, nazorat organlarining mustaqil emasligi, qarorlar faqat yuqoridan qabul qilinishi — bular korrupsiya uchun "qulay muhit" yaratadi.

Bu fikrni Amerikalik tadqiqotchi Klitgord ham o'z izlanishlarida qo'llab-quvvatlaydi: agar siyosiy tizim yopiq bo'lsa va hisobdorlik bo'lmasa, korrupsiya muqarrar bo'ladi⁸.

Korrupsiyani ildizi faqat shaxsiy manfaatparastlik yoki huquqiy bo'shliqlar bilan izohlab bo'lmaydi. Uning keng ko'lamda avj olishi ko'pincha siyosiy tizimdagi nomutanosibliklar, institutsional zaiflik va siyosiy irodaning etishmasligi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, davlat boshqaruvi tizimidagi **tashkiliy-siyosiy omillar** korrupsiyaning ildiz otishiga va ommalashishiga zamin yaratadi.

Birinchidan, **siyosiy institutlarning zaifligi** korrupsiyani kuchaytiruvchi asosiy omillardan biridir. Agar siyosiy partiyalar, parlament, sud hokimiyati va ommaviy axborot vositalari kabi institutlar o'z funksiyalarini mustaqil, professional va samarali bajarmasa, ijro hokimiyati ustidan nazorat mexanizmlari ishlamaydi. Natijada, hokimiyat vakillari o'z vakolatlaridan shaxsiy yoki guruhviy manfaatlar yo'lida foydalanishga moyil bo'lib qoladilar. Bu holat siyosiy javobgarlik va hisobdorlik prinsiplarining buzilishiga olib keladi.

Ikkinchidan, **siyosiy irodaning sustligi yoki yo'qligi** ham korrupsiyaga qarshi kurashni zaiflashtiradi. Agar mamlakatda yuqori darajadagi rahbariyat korrupsiyaga qarshi kurashni siyosiy prioritet sifatida belgilamasa, pastki darajadagi amaldorlar ham bu borada jiddiy chora-tadbirlar ko'rmaydi. Siyosiy irodaning yo'qligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar

faoliyatini ham passivlashtiradi. Ular faqat “ko’rsatma” asosida harakat qiladigan mexanizmga aylanib qoladi.

Uchinchidan, **kadrlar siyosatining sifatsizligi** va “mahalliychilik”, “tanish-bilishchilik” kabi holatlar korrupsiyaning tashkiliy ildizlaridan biri hisoblanadi. Kadrlar tayinlanayotganda malaka va halollik emas, balki tanish-bilishlik asosiy mezonga aylanganda, lavozimlarni suiiste’mol qilish va korrupsiya holatlari ko’payadi. Bu esa butun boshqaruv tizimining samarasizligiga olib keladi.

To’rtinchidan, **byurokratik to’siqlar va ortiqcha rasmiyatchilik** davlat boshqaruvida korrupsiyani rivojlantiruvchi muhim tashkiliy omillardandir. Agar biror ma’muriy xizmat olish uchun murakkab, uzoq va noaniq protseduralar talab etilsa, aholining muqobil yo’l – ya’ni pora orqali tezlashtirilgan xizmatga murojaat qilish ehtimoli oshadi. Bunday tizimda korrupsiya yashirin “mexanizm” sifatida ishlay boshlaydi.

Beshinchidan, **siyosiy javobgarlikning pastligi** va amaldorlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining sustligi ham korrupsiyani kuchaytiradi. Demokratik tizimlarda siyosatchilar va amaldorlar doimiy ravishda jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati tomonidan kuzatuv ostida bo’ladi. Ammo bu jarayon zaif bo’lgan davlatlarda, hokimiyat egalari o’z harakatlari uchun mas’uliyat sezmaydi. Natijada, korrupsiya hollari jazosiz qoladi.

Nihoyat, siyosiy tizimning yopiq va markazlashgan bo’lishi, turli guruhlar va ijtimoiy qatlamlarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok eta olmasligi ham korrupsiyaning kuchayishiga olib keladi. **Ochiqlik, hisobdorlik va ishtirok** prinsiplarining yo’qligi siyosiy korrupsiyani – ya’ni yuqori darajadagi mansabdorlar o’rtasidagi norasmiy bitimlarni, foydali shartnomalar bo’yicha manfaatlar almashinuvini kuchaytiradi.

Korrupsiyani faqat jinoyat sifatida emas, balki davlat boshqaruvi tizimidagi chuqur siyosiy va tashkiliy muammolar natijasi sifatida baholash kerak. Demak, korrupsiyaga qarshi kurash doirasida siyosiy islohotlar, kadrlar siyosatini yaxshilash, ochiqlik va hisobdorlikni ta’minlash, siyosiy institutlarni mustahkamlash va fuqarolik jamiyatini faollashtirish ustuvor yo’nalishlardan biri bo’lishi zarur. Aks holda, mavjud tashkiliy-siyosiy muhit korrupsiyaga qarshi har qanday huquqiy yoki iqtisodiy chora-tadbirlarning samaradorligini pasaytiradi.

Bugungi kunga kelib O’zbekiston tajribasida esa korrupsiyaga qarshi kurashda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish muhim yo’nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda

Yuqoridagilarga asosan endi biz korrupsiya va uning omillari o’rtasidagi bog’liqliklarni tahlil qilsak.

Korrupsiya hech qachon havodan paydo bo’lmaydi. Unga olib keluvchi omillar bo’lmasa, korrupsiya imkoniyati yo’qoladi. Masalan, agar bir tizimda qonunlar murakkab, lekin ularning ijrosi zaif bo’lsa, amaldor bu noaniqlikdan foydalanib shaxsiy foyda ko’rish mumkin.

O’z navbatida, korrupsiya mavjud bo’lgan muhitda bu omillar kuchayib boradi: ishonchsizlik ortadi, qonunlar o’z kuchini yo’qotadi, jamiyatda “pora bermasang, ish bitmaydi” degan tushuncha ildiz otadi. Bu sabab-oqibat bog’liqligi ham omillarni, ham korrupsiyaning o’zini kuchaytiradi.

Korrupsiya jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga ta’sir ko’rsatadigan salbiy hodisa. Uni faqat jazolash orqali emas, balki uni yuzaga keltirayotgan omillarni tahlil qilish va bartaraf etish orqali yo’q qilish mumkin. Klitgord va Rose-Ackerman nazariyasi korrupsiyani tizimli yondashuvda tushuntirsa, rus va o’zbek olimlari uning huquqiy va ijtimoiy ildizlarini

ko'rsatadi. Ularning fikrlari shuni anglatadiki, korrupsiyaga qarshi kurash bu — faqat qonuniy chora-tadbirlar emas, balki axloqiy, madaniy va institutsional islohotlar majmuasidir.

Korrupsiya har bir jamiyatda turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan murakkab va ko'p qatlamli ijtimoiy illatdir. Uning ildizlari odatda konkret bir soha bilan emas, balki jamiyatning huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlari bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda, korrupsiyani faqat bir yo'nalishi hodisa sifatida emas, balki turli omillar o'zaro ta'sirga kirishadigan kompleks tizim sifatida tahlil qilish zarur.

Huquqiy muhitdagi noaniqlik va korrupsiya. Huquqiy asoslarning ravshan, tushunarli va barqaror bo'lmasligi korrupsiyaviy holatlarning eng muhim manbalaridan biridir. Qonunchilikdagi chalkashliklar, huquqiy kolliziyalar, va eng muhimi, huquqni bir xilda qo'llashdagi nomutanosibliklar amaldorlarning subyektiv yondashuviga yo'l ochadi. Masalan, bir xil holat uchun ikki xil huquqiy talqin bo'lishi amaldorlar uchun qaror qabul qilishda o'z manfaatini ko'zlash imkoniyatini yaratadi. Bunday sharoitda qonun ustuvorligining buzilishi korrupsiyaning ildiz otishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, qonunchilikdagi "bo'sh joylar", ya'ni aniq tartibga solinmagan sohalar amaldorlarning keng diskretion vakolatlaridan foydalanib, o'z manfaatini ko'zlab qaror qabul qilishiga olib keladi. Bu esa "ruxsat berish uchun to'lov" mentalitetini shakllantiradi va korrupsiyaga zamin yaratadi.

Iqtisodiy omillar va korrupsiya o'rtasidagi bog'liqlik. Korrupsiyaning rivojlanishida iqtisodiy barqarorlik va fuqarolarning daromad darajasi bevosita rol o'ynaydi. Aholi yoki amaldorlar o'z ehtiyojlarini qonuniy yo'l bilan qondira olmagan hollarda, ular noqonuniy daromad olishga intilishadi. Ayniqsa, davlat xizmatchilarining ish haqi etarli bo'lmaganda, ular rasmiy vakolatlarini tijoratlashtirishga moyil bo'lib qolishadi. Bu holat "surunkali iqtisodiy zaiflik" deb ataladi.

Iqtisodiy muhitdagi noaniqlik, bozor munosabatlarining to'liq shakllanmaganligi, soliq yukining og'irligi, ruxsatnomalar olishdagi byurokratik to'siqlar va kredit olishdagi murakkab mexanizmlar ham tadbirkorlarni noqonuniy yo'llarni tanlashga majbur qiladi. Natijada, iqtisodiy manfaatlar korrupsiyaning "yoqilg'isi" ga aylanadi.

Madaniy-axloqiy omillar va korrupsiya. Jamiyatdagi madaniy va axloqiy qadriyatlar ham korrupsiyaning tarqalishida muhim o'rin tutadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat past bo'lgan jamiyatlarda pora berish yoki olish holatlari oddiy va odatiy holat sifatida qabul qilinadi. Bunday jamiyatlarda fuqarolar huquqini qonun orqali emas, balki "tanish-bilish" orqali hal qilishni afzal ko'radilar.

Milliy madaniyatda mansabdor shaxslarni hurmat qilish qadriyat sifatida qaralsa-yu, ular ustidan jamoatchilik nazorati sust bo'lsa, bu vaziyat korrupsiya uchun qulay muhit yaratadi. Shuningdek, "porani berish majburiyat", "sovg'a berish odat" deb qaralgan holatlar madaniy-axloqiy mezonlarning buzilishidan dalolat beradi.

Tashkiliy-siyosiy omillar va korrupsiya. Tashkiliy-siyosiy omillar, ya'ni siyosiy institutlarning zaifligi, kadrlar siyosatidagi xatolar, siyosiy irodaning etishmasligi va hisobdorlik tamoyillarining ishlamasligi ham korrupsiyani rag'batlantiruvchi kuchlardandir.

Xulosa. Agar davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazorat mexanizmlari mavjud bo'lmasa, bu amaldorlarning qonunni buzishiga sharoit yaratadi. Siyosiy javobgarlik, jamoatchilik nazorati va mustaqil Ommaviy axborot vositalarining yo'qligi esa ushbu qonunbuzarliklarni fosh etishga imkon bermaydi. Bu holatlarda korrupsiya jinoiy harakat

bo'lishdan ko'ra tizimli "me'yor"ga aylanib qoladi.

Shuningdek, kadrlar tayinlashda shaffoflik bo'lmasa, lavozimlar bo'yicha "sodiqlik" mezonini asosida tanlov o'tkazilsa, bu ham korrupsiya xavfini oshiradi. Bunday sharoitda fuqarolar davlatga ishonch bildirmay, porani muqobil yo'l deb biladilar.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha omillar bir-biridan mustaqil emas. Aksincha, ular o'zaro bir-birini to'ldiradi va kuchaytiradi. Masalan, iqtisodiy nochorlik huquqiy zaiflik bilan birgalikda mavjud bo'lsa, amaldorlar qonunni buzish evaziga daromad topishni afzal ko'radi. Huquqiy muhitda noaniqlik va tartibsizlik hukm sursa, siyosiy institutlarning samarasizligi bu holatni jilovlay olmaydi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyatining zaifligi va madaniy muhitdagi indifferentsiya bularning barchasini "normal" holat sifatida qabul qilinishiga olib keladi.

Demak, korrupsiyaga qarshi kurashda faqat bitta sohani isloh qilish etarli emas. Bu kurash kompleks va uzviy yondashuvni, ya'ni huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohotlarni birgalikda olib borishni talab etadi.

Foydalalnilgan adabiyotlar:

1. Sh.M. Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar. // Manba: www.president.uz/uz/lists/view/3324
2. Тихомиров Ю.А. Практические аспекты осуществления антикоррупционного анализа и оценки реализации правовых актов // Журнал российского права. — 2009. — № 10. — С. 14-21.
3. Klitgaard, R. (1988). Controlling Corruption. University of California Press.
4. Коррупцияга қарши курашиш. Дарслик. // Масъул муҳаррир: А.Ш. Бекмуродов: – Тошкент: "Akademiya", 2022. 180-bet
5. Rose-Ackerman, S. (1999). Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. Cambridge University Press.
6. Бузун, Е. В. Роль правовой культуры в преодолении коррупционных факторов в правотворчестве / Е. В. Бузун. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2013. — № 7 (54). — С. 269-271. — URL: <https://moluch.ru/archive/54/7437/> (дата обращения: 24.05.2025).